



BOSHLANG'ICH SINFLARGA MATNLARNI O'RGATISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

M.Sh.Abdikarimova

talaba

Samarqand davlat universiteti, Samarqand
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8049462>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-June 2023 yil

Ma'qullandi: 15-June 2023 yil

Nashr qilindi: 17-June 2023 yil

KEY WORDS

*matn, tushuncha, kontekst,
hikoya, didaktik o'yinlar,
darslik, savol, metod.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matn, hikoyalarni didaktik o'yinlar orqali tushunarli qilib yetkazish va tub mohiyatini o'quvchilarga yetkazib berish haqida fikr yuritilgan.

Ma'lumki, bolalar asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir narsaga, voqea-hodisaga qiziquvchan, shu bilan birgalikda tez eslab qoladigan "mashina"dir. Bolalar uyida ko'rgan harakatlarni, yaqinlari aytadigan gaplarni va o'qituvchisining hatti-harakatini o'zlashtirib oladi. Shu sababli, o'qituvchidan ehtiyotkorlik talab etiladi. Hozirgi rivojlanib borayotgan ta'lim tizimimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yangi tahrirdagi kitoblar nashr etilmoqda. Bulardan biri, ona tili va o'qish darslarini birlashtirib "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi ko'plab muhokamalarga sabab bo'ldi va hozirda ham bu muammo sifatida ko'rilyapti. Xo'sh, bunga sabab nimada? Asosiy sabab- o'qitish ma'lum bir qolipga tushib qolganidir. Har yili bir xil darslik, bir xil ish reja, bir xil o'qitish uslubi. Chiqarilgan yangi darslikda esa o'zgacha uslub, yangi mavzular, bir-biri bilan to'la bog'lanmagan mashqlar dastlab o'qituvchini gandraklatib qo'yadi, lekin darslikga, berilgan mavzularga kreativ yondoshsa bu darslik oldingilaridan ancha samarali va qiziqarli ekanligi anglashiladi, nazarimda. "Ona tili va o'qish savodxonligi"ning ustun tarafi har bir mavzu hayot bilan uzviy bog'langan va har bir mavzuda aynan bir tushuncha emas, har bir tushunchadan "bir shingil" dan o'rganiladi. Bu esa har dars takrorlanadi, har dars takrorlangan bilim ko'nikmaga va takomillashib malakaga aylanadi. Ota-bobolarimiz aytgandek "Yoshlikda olingan bilim-toshga o'yilgan naqshdek" bolaning ongida qoladi. 2021-yilda chop etilgan yangi darslikning asosini matnlar tashkil etadi. Ma'lumki, hikoyalar, matnlar, badiiy asarlarni o'qish bilan birgalikda shaxsni estetik tarbiyalash, ya'ni bilim berish, tarbiyalash va e'tiqodlarini shakllantiradi, ya'ni maktabda o'qitiladigan predmetlar kabi bolalar adabiyoti namunalarini san'at asari sifatida o'rganish vazifalari o'qish darslariga yuklatiladi. Har bir fan o'zining o'rganish ob'ekti va predmetiga ega bo'lganidek, hozirgi kunda bochlang'ich sinflarda o'qish metodikasi adabiy ta'lim metodikasi sifatida ish ko'rishi lozimligi g'oyasi ilgari surilmoqda.

"Hozirgi kunda metodikadan boshlang'ich sinf o'qituvchilari aniq dalillangan, ilmiy asoslangan ko'rsatmalarni kutmoqda"[1]. Boshlang'ich sinflarda berilgan matnlar dastlab

o'qituvchi tomonidan ifodali va obrazga kirib o'qib beriladi, matn tugatilgandan so'ng xohlagan o'quvchidan qayta hikoya qilib berish talab etiladi. Bu o'quvchilarning diqqatini yanada oshiradi. Ushbu dars metodikasini 3-sinf misolida ko'rib chiqamiz. Qayta hikoyadan keyin matn bo'yicha savollar berish kerak, lekin shu o'rinda aynan matnning "tashqi tarafidan" emas balki asl mohiyatidan kelib chiqib, ijodiy yondashish kerak. Hikoya bo'yicha savollar berishda ham metodlardan foydalanish kerak, masalan: "sendan ugina, mendan bugina" metodini qo'llash ham anchayin samaralidir. Bu metod shundan iboratki, o'qituvchi savollar bilan yuzlanadi, o'quvchilar esa javoblar berishadi. Har bir javob rag'batlantiriladi, bu o'quvchilarni o'zlariga nisbatan talabchanligini oshiradi.

Hikoya bo'yicha savollar:



1. "Hikmat" deganda siz nimani tushunasiz?
2. Siz ertalab nonushta qilasizmi?
3. "Hikmatli so'z" bilan "Nasihatni" farqi bormi?
4. Sizga ham kimdir hikmatli so'z yoki nasihat aytganmi?
5. Qanday jamoat transportlari haqida bilasiz? Nega ular jamoat transporti deb ataladi?
6. Siz a'lo baho olish uchun nimalar qilasiz?
7. Yaxshilik siz uchun nima?
8. Siz maktabga doimo mamnun kayfiyatda kelasizmi?
9. Bobo va buvilarimizning biz bilan yashashini qanday qulayliklari bor?
10. Siz ham avtobuslarga kechga qolgansizmi?
11. "Baraka topasan" so'zini siz qanday tushundingiz?
12. Siz qanday hikmatli so'zlarni eshitgansiz?

O'quvchilar bilan matn tahlilidan so'ng ona tiliga bog'lab, kontekst darslar, metodlar bilan boshlash talab etiladi. "Boshlang'ich sinflarda o'rganilayotgan adabiy-badiiy asarlar tahlili va talqiniga yangicha yondashish lozimligini taqazo etmoqda. Asar tahlilini bosqichli, izchillik asosida olib borish o'quvchilarning o'quv faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qish materiali-badiiy asar ustida amalga oshiriladigan ishlarning aniq maqsadga yo'naltirilishini, o'quvchilar faoliyatini kuzatish va tezkorlik bilan baholashni ta'minlaydi"[1].

Mavzu bo'yicha topshiriqlar.

1-topshiriq

"Kun tartibi" metodi

Bu metodda o'quvchilarga rasmlar beriladi (bu metod har bir dars uchun mo'ljallangan bo'lib, rasm o'rniga anglashiladigan tushunchalarga mos belgilar qo'yiladi). Bu metod orqali o'quvchilarga ham kun tartibini o'rgatadi, ham zerikib qolmasliklari uchun enerjizayzer bo'ladi.



1



2



3



4



5



6




9



10


2-topshiriq



Xo'sh siz yordam berasizmi?

Far-; no-; to'g'-; mak-;
avto-; be-shof-; pap-;
sar-; nabi-; ro'-; ki-.

Bilmasvoy bo'g'nlarning davomini topishga qiynalyapti.



3-Topshiriq

Bolalarga darsga bog'lab ma'naviy daqiqa o'tiladi, ya'ni bugungi mavzu jamoat transportlari va "uch hikmat" deb nomlanadi. Shu o'rinda o'quvchilarga yaxshilik amalining ijobiy taraflari tushuntiriladi va daftarlariga ko'chada yurganida yoki jamoat transportlarida yurganda qanday yaxshiliklar qilishi mumkinligi haqida yozilishi aytiladi. Bu bilan o'quvchilarda ko'chada o'zini tutishi, jamoat transportida qanday odob qoidalariga amal qilishlarini anglab yetadi.



4-topshiriq

O'quvchilarning mavzuni qanday o'zlashtirganligi va so'z boyligini oshirish maqsadida bo'ladi bu topshiriq:

HIKMAT

"HIKMAT" degan so'zning har bir bosh harfiga mos, mavzuga aloqador so'zlarni toppish va yozish. MASALAN:


H-hovliqmaslik, hayol surmaslik va h.k. lar. Xuddi shunday boshqa harflarga ham topamiz.

5-topshiriq

"Qani tanla" metodi

Bu metodka o'qituvchi rangli tayoqchalardan foydalanishi kerak, chunki bu usul samaraliroq bo'ladi. Har bir o'quvchiga

rangli tayoqchalardan istaganicha olishi so'raladi. Barcha o'quvchilar olib bo'lgandan so'ng kim nechta tayoqcha olgan bo'lsa shuncha bugungi mavzuga oid ma'lumot aytishi kerakli aytiladi.



UYGA VAZIFA

1. Eng kamida 1 ta jamoat transportini rasmini chizib bo'yab kelish;

2. Jamoat transportida bo'lgan voqeaga oid hikoyacha tuzib kelish

3. 3 ta hikmatli so'z yozib kelish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.G'ulomova "Boshlang'ich sinfda o'qish darslarini tashkil etish metodikasi"(maqola)-2020 y.
2. K.Qosimova va b. "Ona tili o'qitish metodikasi"-Toshkent "Nosir"2009
3. I.Azimova, K.Mavlonova va b. Ona tili va o'qish savodxonligi (3-sinf)-Toshkent 2022